



Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9513

Doi Journal 10.26739/2181-9513

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

4 ЖИЛД, 6 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И
ПСИХОЛОГИИ
ТОМ 4, НОМЕР 6

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND
PSYCHOLOGY
VOLUME 4, ISSUE 6



TOSHKENT-2021

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

1. Mavlonova Gulchehra

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING
AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANТИRISH.....4

2. Тангиров Хуррам, Жомуродов Дўстмурод, Муродқосимова Шодия

АХБОРОТ-ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ЎҚИТИШНИ
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....10

3. Туракулова Ирода

СОЦИАЛЬНАЯ УСТАНОВКА КАК РЕГУЛЯТОР ПОВЕДЕНИЯ ЛИЧНОСТИ.....19

4. Jo'raev Abduvahob

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI FAOLIYATINING
AMALIY – PEDAGOGIK ASOSLARI.....23

5. L. Nazarova

USING TELEGRAM MESSENGER IN TEACHING ENGLISH IN
HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.....29

6. Абдукадирова Лаура

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ
ПОДДЕРЖКИ СЕМЕЙНЫХ СТУДЕНТОК В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА.....38

7. Сарсенбаева Райхон

ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ БАҲОЛАШ МЕТОДИКАСИ.....46

8. Г.С. Хужаниёзова

БЎЛАЖАК ИҶИСОДЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА УЗЛУКСИЗ
МАТЕМАТИК ТАЪЛИМ ИНТЕГРАЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....57

9. Kosimova Zarina

XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISHDA
HORIJUY OLIMLARNING YONDOSHUVLARI.....63

10. Raxmankulova Barna Oktamxanova, Saparova Dilnoza Paraxatovna

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLIK VA ONALARİNG O'RNI.....72

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Raxmankulova Barna Oktamxanovna
dotsent, iqtisod fanlari nomzodi,
TIQXMMI O'zbekiston
dilnoza9866@mail.ru

Saparova Dilnoza Paraxatovna
talaba, TIQXMMI, O'zbekiston

О'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK VA ONALARNING O'RNI

Rakhmankulova Barna, Saparova Dilnoza. Gender equalite and the mothers' role in Uzbekistan.
Journal of innovations in pedagogy and psychology. Vol. 4, Issue 6, 2021, pp. 72-78



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2021-6-10>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada inson huquqlari, gender tenglik, gender tengligining ham xalqaro huquqiy, ham konstitutsiyaviy huquqiy asoslari haqida, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lif hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatlari, Bugungi kun yoshlar ongida Mafkuraviy immunitetni hosil qilishda oilaning, jumladan onaning o'rni ta'kidlab o'tilgan.

Tayanch iboralar: yangilanayotgan O'zbekiston, huquq va imkoniyatlar, xalqaro hamjamiyat, gender tenglik, oila, madaniyat, huquqiy ongi, qaror, tizim, mustaqillik davri, dunyoviy va demokratik boshqaruv, mehnat, siyosat va iqtisodiyot, o'tmish, tarix, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar, erkaklar, xotin-qizlar, axborot huruji, barqaror taraqqiyot, mafkuraviy immunitet,

Рахманкулова Барна Октамхановна
доцент, кандидат экономических наук,

ТИИИМСХ, Узбекистан
dilnoza9866@mail.ru

Сапарова Дилноза Парахатовна
студент, ТИИИМСХ, Узбекистан

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И РОЛЬ МАТЕРЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В этой статье рассматриваются права человека, гендерное равенство, правовые основы гендерного равенства как в международном, так и в конституционном праве, отношения между женщинами и мужчинами во всех сферах общественной жизни и деятельности, включая политику, экономику, право, идеологию и культуру, роль семьи, в том числе матери, в формировании идеологического иммунитета в сознании современной молодежи.

Ключевые слова: обновление Узбекистана, права и возможности, международное сообщество, гендерное равенство, семья, культура, правовое сознание, решение, система, период независимости, светское и демократическое управление, труд, политика и экономика, прошлое, история, политика и социальные процессы, мужчины, женщины, информационные атаки, устойчивое развитие, идеологический иммунитет

Rakhmankulova Barna Oktamkhanovna

Candidate of Economics sciences,

Associate Professor of the Department

“Information Technology”, TIIAME

dilnoza9866@mail.ru

Saparova Dilnoza Paraxatovna

student, TIIAME

GENDER EQUALITY AND THE MOTHERS' ROLE IN UZBEKISTAN

ANNOTATION

This article examines human rights, gender equality, the legal foundations of gender equality in both international and constitutional law, relations between women and men in all spheres of public life and activities, including politics, economics, law, ideology and culture. The role of the family, including the mother, in the formation of ideological immunity in the minds of modern youth.

Key words: renewal of Uzbekistan, rights and opportunities, international community, gender equality, family, culture, legal consciousness, decision, system, period of independence, correct consideration, irtocractic movement, muychins, women, information attacks, sustainable development, ideological immunity.

Kirish. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning nihoyatdaiyot muhim bir tamoyilidir. 2000 yilda BMTTD BMT tizimidagi boshqa hamkorlari va butun xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda gender tengligi konsepsiyasini inson faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilib olinganidan buyon mazkur yo‘nalishda sezilarli ijobjiy o‘zgarishlarga erishildi. 2020 yilda jahon hamjamiyati xalqaro huquqning zamonaviy arxitekturasi, shu jumladan inson huquqlarini himoya qilish universal qadriyatlari uchun asos solgan BMT tashkil etilganligining 75-yilligi nishonlandi.

Hozirgi kunda iqlisodiyotning ba’zi hududlarida sezilarli darajadagi gender tensizlik saqlanib qolmoqda, xususan bunday tensizlik haq to‘lanadigan ish o‘rinlarini egallash hamda mehnat bozorida yaqqol kuzatilmoqda. Har bir inson jinsiy va reproduktiv salomatligini yaxshilash bo‘yicha xizmatlardan foydalanish imkoniyatining ta’milanishi, qolaversa barcha ayollar yer resurslari va mulk kabi iqtisodiy ne’matlardan erkaklar bilan teng ravishda foydalanish huquqi va imkoniyatini ta’minalash mazkur maqsadga erishishning eng asosiy shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Barqaror taraqqiyot 2030 dasturining maqsadlari hozirgi kungacha erishilgan yutuqlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, Gender tengligini ta’minalashning 17 ta maqsadlaridan 5-maqsadidir.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra Jahondagi ba’zi sohalarda xotin-qizlarning faolligi:

№	Jahondagi:	ulushi
1	jami ishning	2/3 qismini
2	barcha daromadning	1/10 qismini
3	mulknинг	1/100 qismi
4	rahbarlik lavozimlarining	1 foizini
5	parlamentdagi	10 foiz
6	savodsizlarning	2/3 qismini
7	qashshoq odamlarning	70 foizi

Asosiy qism. O'zbekistonning 16,5 mln. aholisini xotin-qizlar tashkil etadi. Xotin-qizlar axvolini yaxshilash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ma'lumki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniqa qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda «gender» tushunchasiga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, ushbu sohada davlat boshqaruvi mexanizmlari belgilandi. To'g'ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga etarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. Qonunda gender tushunchasining qayd etilishiga ko'ra, gender - xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatni ko'rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini emas, balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir. Darhaqiqat, qadim yunon olimlari Suqrot, Arastu, Aflatunlar eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukum surgan polisni nazarda tutishgan, eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Yunon olimi Antifont erkak va ayollar tengligi g'oyasini o'z asarlarida qo'llagan holda: «Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi», deb ta'kidlagan. Sharq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy esa, "Fozil odamlar shahri" asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791 yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratasiyasida ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. 1948 yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasida erkak va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida «Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», deya ta'rif berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», deb belgilangandir. Demak, gender tengligining ham xalqaro huquqiy, ham konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Bunday tenglikni ta'minlash uchun Konstitutsiya va qonunlarga zarur qoidalarni kiritishning o'zi kifoya emas. Shu bois ham, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish"ga alohida e'tibor qaratilgan[4].

2020 yil butun dunyo tahlikali yil bolishiga qaramay, mana shunday sinovli kunlarda, ya'ni karantin davrida ham shifokorlar, ichki ishlar, hatto Milliy Gvardiya xodimalarining erkaklar bilan elkama-elka turib ishslashganining guvohi bo'ldik. Shifokorlarimizning azaliy Gippokrat qasamyodi hammaga ma'lum. Bugungi kun tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalq farovonligida, jamiyat tinchligida hamda iqtisodiy barqarorlikda erkak va ayolning teng huquqliligi muhim o'rinn tutadi. Jahon Iqtisodiy forumi (The Global Gender Gap) o'tkazgan tadqiqot natijalariga qaraganda, xotin-qizlar erkaklarga nisbatan bir yilda qariyb 35 kundan ko'proq ishlar ekan. BMT Bolalar Jamg'armasi (YUNISEF) tadqiqotlariga qaraganda esa, qizlar o'g'il bolalarga nisbatan biror ishni bajarishda 35-36 foiz ko'p vaqt sarflar ekan. Bu hali ham dunyoda gender tengligiga erisha olimmayotganligini ko'rsatadi[7].

Shu bois ham, 2019 yilning 2 sentyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati

hisoblanadi[6]. Xususan, xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida O‘zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha tashkil etilgan komissiyaning asosiy vazifalari xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ushbu sohada davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, ushbu sohada qilingan ishlar bo‘yicha har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash va bu borada xalqaro standartlarga rioxalashishga ehtiyoj va zaruriyat yo‘q[9]. Ular mamlakatda sodir bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etayotganligiga, ayniqsa, siyosatda ayollar faollashganining, ya’ni davlat boshqaruvida, sud tizimida, ichki ishlar, bojxona tizimida ham xotin-qizlarning mehnat qilayotganiga, har sohada o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon etishayotganligiga guvohmiz. Ko‘pchilik, hokim ayollarimizni qo‘llab-quvvatlamoqda, hatto endilikda jamiyat ishlarida ayollarning keng ishtirokiga ko‘nikib ham qolishmoqda. Bugungi yangilanayotgan jamiyatda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli gender tengligi borasida o‘zgarishlar, siljishlar, hattoki yutuqlar ko‘zga tashlanmoqda.

Mustaqillik davrida ayollarning ijtimoiy faolligini ko‘tarish davlat siyosatiga aylandi. Ayolning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni to‘liq anglab etildi. Bugungi ayollardan o‘tmishda bo‘lganidek, ozodlik uchun jangu-jadallarda qatnashishga ehtiyoj va zaruriyat yo‘q[9]. Ular mamlakatda sodir bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etayotganligiga, ayniqsa, siyosatda ayollar faollashganining, ya’ni davlat boshqaruvida, sud tizimida, ichki ishlar, bojxona tizimida ham xotin-qizlarning mehnat qilayotganiga, har sohada o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon etishayotganligiga guvohmiz. Ko‘pchilik, hokim ayollarimizni qo‘llab-quvvatlamoqda, hatto endilikda jamiyat ishlarida ayollarning keng ishtirokiga ko‘nikib ham qolishmoqda. Bugungi yangilanayotgan jamiyatda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli gender tengligi borasida o‘zgarishlar, siljishlar, hattoki yutuqlar ko‘zga tashlanmoqda.

Bu borada tarixdagi o‘zbek ayollarining jasorati, oqilligi ularga ibrat bo‘lishi, ularni yanada faollikka undashi shubhasiz. Agar imkon bo‘lganida mamlakatimiz tarixida Saroymulkxonim, To‘maris, Qabaj xotun kabi o‘nlab malika ayollar etishib chiqishi shubhasiz edi albatta. Lekin Amir Temur davridan keyin o‘zbek davlachiligidagi u kabi buyuk shaxs bo‘lmaganidek, ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ham umuman kuzatilmaydi. Ayollarning jamiyat va davlat boshqaruviga jalb etilishi faqatgina dunyoviy va demokratik boshqaruv joriy etilgan mustaqillik davridagina mumkin bo‘ladi[11].

Hozirgi kunda yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohalarda teng huquqli mehnat qilishi borasida huquqiy asoslari yaratilib qo‘yilgan. Qarorlar ishlab chiqilgan, farmonlarda asosan ijtimoiy og‘ir ahvoldagi ayollarni himoya qilish xotin-qizlar tizimining ustivor yo‘nalishiga aylandi. Xotin-qizlarning bandligini ta’minlash masalasi yangi bosqichga ko‘tarildi, huquqiy ongi va madaniyati o‘sdi.

Oila mo‘jazgina bir jamiyat, deydi dono xalqimiz, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi ham uning jipsligiga bog‘liq.

Oilanning insoniyat jamiyatini bilan uzviy bog‘liqligi uning uhdasida eng qutlug‘ vazifa – hayotning abadiyliginiyu, avlodlarning davomiyligini ta’minlashida yaqqol ko‘rinadi. Chunki inson oilada o‘sadi va tarbiyalanadi, uning butun hayoti oila muhitiga bog‘liq. Oila jamiyatning tamal toshi hisoblanadi. Bu masalaga XIX asrning boshida Turkistonda ham alohida e’tibor berila boshlagan[9,10].

So‘nggi 4 yil mobaynida mamlakatimizda inson huquqi erkinligini ta’minlash borasida amalga oshirlayotgan izchil siyosat samarasi o‘laroq nafaqat yurtimizda istiqomat qilayotgan, balki o‘zga yurtlada murakkab ahvolgatushib qolgan O‘zbekiston fuqarolariga ham alohida etibor qaratilib, ularning manfaati, sha’ni, qadr-qimmati himoya qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘iga ko‘ra, “Mehr” insonparvarlik operatsiyasi doirasida 2019 yil Suriya va Iroq davlatlaridan jami 220 nafar yurdoshimiz – ayollar va bolalar olib kelgingan edi. “Mehr-3” operatsiyasi doirasida esa Suriyadan 98 ta nafar ayollar va bolalar olib kelindi, ya’ni 25 nafar ayol va 73 nafar bola, ulardan 14 nafari chin yetim ekanligini ta’kidlash joizdir[13].

Qayd etish lozimki, ta’limdagi, tarbiyadagi, muammolar ijtimoiy-huquqiy muammolarni ham keltirib cizarishi ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan. Masalan, 2020 yil 3 mart kuni Toshkent shahrida

“Suriya va Iroqdan qaytarib olib kelinganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish bo‘yicha Markaziy Osiyo muloqoti: O‘zbekiston tajribasi» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Unda «Mehr-1» va «Mehr-2» operatsiyalari natijalari tahlil etildi. Jumladan, Prezident huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti vakili, professor Baxtiyor Bobojonov o‘zbek ayollarining Iroq va Suriyaga ketgani sabablari haqida to‘xtalib “Eng katta sabab – ularning bilimsizligidir, ayollarning shahodatnomasiga qarasak, hammasi qoniqarsiz ta’lim olishgan” deb ta’kidlab o‘tdi. Afsuski, xalqimiz, millatimizga oid qaysi manbara murojaat etmang, ona, ayol oilaning muqaddasligini ta’minlovchi, oilaning ma’naviy-ahloqiy muhitini yaratuvchi mo’tabar inson sifatida ta’riflanadi[12].

Insoniyat axborotlashgan jamiyatga qadar o‘z taraqqiyoti davomida uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi. Mustaqillikka erishish orzu edi. Shukurki, shunga erishdik. Ezilgan, xo‘rlangan va kamtsitilgan mehnatkash xalqimiz hurlikka chiqdi. Ishlashga keng imkoniyatlar bergan mustaqillikni mustahkamlash Vatanimizdagi barcha elu elatlarning sharaflı burchidir. Mustaqillikka erishgan mamlakat onalarining eng buyuk xizmati shundaki, ular avvalo farzandda chinakam insoniy fazilat – mehrni shakllantiriadi. Ona otaga nisbatan bolaga mehribonroq bo‘ladi, uni hamma vaqt ko‘z qorachig‘iday asraydi, yuvib-taraydi, unga o‘zining butun vujudi, qalbi, mehri, vaqt, e’tibori, mehnatini bag‘ishlaydi. Insonga xos eng noyob va yaxshi fazilatlar borki, ularning barchasi bolaga onadan o‘tadi. Yana shuni ham aytish kerakki, bola tarbiyasidagi eng og og‘ir, mashaqqatli va mas’uliyatli davr – insonning inson bo‘lib shakllanadigan davri ona bag‘rida kechadi. Shuning uchun inson erishgan hamma narsani ona qo‘ynida berilgan tarbiyaning ozig‘i deb bilmox kerak. Ona bolasining posboni, himoyachisi, sirdosh do‘sti va qiblagohidir[8].

Mamlakatimizga islam dinining kirib kelishi bilan mamlakat xayotida ayollarga nisbatan siyosat yangicha tus olgan bo‘lsa-da, ularning birortasi ham mamlakat boshkaruvida ishtirok etmagan, deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘ldi. Hattoki, Amir Temur davlatida uning xonadoniga mansub ayollar alohida e’tiborda bo‘lib, bu shaxsan Amir Temurning ushbu masalaga alohida munosabati bilan belgilanardi. Manbalarda e’tirof etilishicha, Amir Temur o‘z xonadoniga mansub ayollarning kayfiyati va ruhiyatiga alohida e’tibor qaratgan. U «qul tabiat ayollardan qul tabiat farzandlar tug‘iladi», deb hisoblagan va ularga nihoyatda katta e’tibor qaratgan. Amir Temurning ayollarga munosabatini uning o‘z rafikasi Saroymulkxonim bilan munosabatida yaqqol ko‘rish mumkin. Saroymulkxonim nihoyatda dono, oqila, farosatli ayol bo‘lib, saroya va mamlakatda katta nufuzga ega edi. Saroymulkxonim Amir Temur safarda bo‘lganida mamlakat boshqaruvida ishtirok etish bilan birga obodonchilik, qurilish ishlariga ham xissa qo‘shtan, uning s’ayi-xarakatlari bilan Samarkandda Madrasa ham qurilgan. Saroymulkxonim Amir Temur xonadoniga mansub farzandlar tarbiyasida ham katta rol o‘ynagan[10,11].

O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 2 fevraldagagi PF-5325-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risidagi”gi Farmonida ham oilada onaning rolining buyukligi ta’kidlab o‘tildi[5].

Qator ishlab chiqilgan Farmonlarga asosan ijtimoiy og‘ir ahvoldagi ayollarni himoya qilish xotin-qizlar tizimining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xotin-qizlarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshdi, ularning bandligini ta’minalash masalasi yangi bosqichga ko‘tarildi, xuquqiy ongi va madaniyati oshdi.

Haqiqatan ham, bugungi kun zamonaviy texnologiyalari jamiyatning o‘sishi va rivojlanishi uchun juda ahamiyatli, lekin bunday texnologiyalardan oqilona foydalanish, uni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va eng asosiysi millatimizning urf-odat, qadriyat, an’alarini ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan barcha boyliklarni asrab-avaylab, uni kelajak avlodga ham etkazish kerakligini hech qachon yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Shunday ekan, axborot maydonida o‘z manfaatini ko‘zlab axborotni noxolis, noaniq etkazilishi axborot xurujining boshlanishi desa bo‘ladi. Shuning uchun axborotni axborot etkazuvchi holisona, aniq, tezkorlikda etkazilishi, axborot oluvchi esa olgan ma’lumotlarni holisona tahlil qilishi, olgan axborotining xavfsizligiga ishonch bildirishi zarur. Har bir oilada ota-onha o‘z farzandining taqdiriga befarq bo‘limgan holda uning axborot texnologiyalaridan foydalanishini nazorat qila bilishi kerak. Yuqoridaqilardan o‘z fikrimizni harakatga keltiruvchi, shiddat bilan o‘z ko‘lamini kengaytirib

borayotgan Internet va virtual olam haqidagi tushunchalarimiz – inson tafakkuri, aqli va bilimining mahsulidir.

Bugungi kunda global tarmoq afzalliklarini inkor etmagan holda, uning inson ma’naviyatiga tug‘diradigan xavf-xatarlari, etkazadigan zararlari haqida so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi. Bugungi kun yoshlari Internetni ma’lumot olishning asosiy manbai hamda telekomunikatsiyaning bosh manbai deb qaraydilar. O‘zbekiston yoshlari ham dunyodagi tengdoshlari kabi onlayn tarzda kun yangiliklarini o‘qishi, bilim olishlarida kurs ishlari va referatlar uchun kerakli ma’lumotlar qidirishi, yangi do‘stlar orttirish, ular bilan muloqot qilish va keng miqyosdagi axborotlar olish uchun Internetdan foydalanadilar. Davlat va fuqarolarning interfaol muloqoti vositasida birgalikdagi siyosiy harakatlar mexanizmlarining o‘zgarishi natijasida so‘z va axborot erkinligi, davlat boshqaruvida qarorlarning jamiyat uchun shaffofligi imkoniyatlar yanada ortadi. Internetda jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, hali ongi shakllanib ulgurmagan, voyaga etmagan yoshlarning dunyoqarashiga, g‘oyaviy tarbiyasiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbaalar ham oz emas[2,3].

Mamlakatimiz yoshlarini ham, bu kabi xavf-xatarlar chetlab o‘tayotgani yo‘q. Mafkuraviy immunitetning to‘liqmasligi tufayli ko‘plab yoshlar va xatto kattalar ham turli g‘oyaviy oqimlarga tushib qolmoqda. Mobil aloqalar tufayli yoshlarimiz oilalariga zarar etmoqda.

Hozirda O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi tomonidan yoshlarga oid davlat siyosati keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim muassasasida o‘quvchi va talaba yoshlarni qamrab olish, uyushmagan yoshlar bilan ishslash, ularni ma’lum yo‘nalishlarga jalb etish kabilar.

Xulosa. Umuman olganda, yangilanayotgan yurtimizda ham Internet xalqaro axborot tarmog‘ini milliy axborotlar bilan to‘ldirish eng dolzarb muammolardandir. Bugungi kun Onalari yoshlar ongida ma’naviyat o‘chog‘ini yuksaltirsa, milliy g‘oyamiz va milliy urf-odatlarimizga tayangan holda faoliyat olib borsa, tahdidlardan o‘z vaqtida ogohlantira olsa, axborot xurujlariga qarshi kurasha oladigan immunitetni hosil qilsa, axborot xurujiga qarshi kurashning samaradorligiga erishgan bo‘lardi. Bu immunitetni hosil qilishda oilaning, jumladan onaning o‘rnini ajralib turadi. Farzandining har bir xatti xarakatlaridan ogoh bo‘lishi shart.

Shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi kunda yangilanayotgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagи islohotlar hech bir fuqaroni chetlab o‘tayotgani yo‘q. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyovning quyidagi so‘zlari bunga dalildir, “Inson islohot uchun emas, islohot inson uchundir”[1]. Qabul qilinayotgan barcha qonunlar xalq hayot tarzini yanada yaxshilash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohalarda teng huquqli mehnat qilishi borasida huquqiy asoslari yaratish, ularni qiyinayotgan muammolarni echish, jumladan, bugungi kun yoshlari uchun ham xizmat qilmoqda. Xotin-qizlar qo‘mitasining respublika bo‘yicha yagona qisqa raqamli (1146) “Ishonch telefonи” tashkil etilgan bo‘lib, har kuni 24 soat davomida xotin-qizlarning murojaatlarini qabul qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada oshishiga, yoshlarimiz kelajagini ta’minalashga, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga va himoyalashga zamin bo‘lmoqda. Jumladan, 2019-2021 yillar davomida “Mehr” operatsiyasi natijasida “qaynoq nuqtalar”da yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan, begona mamlakatda turmush o‘rtog‘idan yoki ota-onasidan ayrılib qolgan ayollar va bolalarning yurtimizg qaytarib klinishi, ayniqsa ularning davlat, jamoat tashkilotlari, mehr-oqibatli fuqarolarimiz yordamida jamiyatimizda o‘z o‘rnini topib ketishayotgani, quvonarlidir.

Mustaqillik davrida ayollarning ijtimoiy faolligini ko‘tarish davlat siyosatiga aylanishi bilan, ayolning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnı to‘liq anglab etildi. Bugungi ayollarda, onalarda o‘tmishda bo‘lganidek, ozodlik uchun jangu-jadallarda qatnashishga extiyoj va zaruriyat yo‘q. Lekin ular mamlakatda sodir bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirot etishlari, har bir sohada o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon etishlari lozim. Bu borada tarixdagi o‘zbek ayollarining jasorati, oqilligi ularga ibrat bo‘lishi, ayollarni yanada faollikka undashi shubhasiz.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoev “2017-2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”, Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral.

2. I.A.Karimov O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari-T.: O‘zbekiston 2000.
3. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O‘zbekiston, 2009.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. 2018 yil 2 fevraldagи PF-5325-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi O‘zbekiston Respublikasining Farmoni.
6. 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 3 aprel, PF-5978-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4780475>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2020 yil 19 mart, PF-5969-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/4770761>
9. Xotin-qizlar ensiklopediyasi – Toshkent.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.-480b.
10. Tafakkur gulshani, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent, 1981.
11. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi, eng kadimgi davrdan rossiya boskiniga qadar // «Shark» nashriyoti, Toshkent -2001
12. «Suriya va Iroqdan qaytarib olib kelinganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish bo‘yicha Markaziy Osiyo muloqoti: O‘zbekiston tajribasi» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent 2020 yil 3 mart.
13. Muhitdinova F. Yangilanayotgan O‘zbekistonda gender tenglikning huquqiy asoslari // TDYUU, 12 iyun, 2020
14. Raxmankulova B.O., Saparova D.P. Axborot hurujiga qarshi kurashda onalarning roli // “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yosh xotin-qizlarning innovatsion goya va” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferentsiyasi materiallar to’plami, Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent 2020, 29 iyun, 414-417 betlar.
15. Internet ma’lumotlari: <https://uza.uz/>